

TURKISTONNING YETMISH OQQUSHI

O'Imasbek Abdurahmonov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonning 70 ga yaqin iste'dodli talabalari Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga yuborilgani, talabalarning o'qishni tamomlamay turib qaytishlari, xalqning ma'naviyati uchun qurbon bo'lgan va hayoti daxshatli azob-uqubatlar bo'roniga to'lgan bu yetmish qahramonlarni men "Turkistonning yetmish oqqushi" haqida keltirilgan.

Kalit so'zlar: aksilinqilobchi-millatchi, da'vat, sobiq, maorif, muvaffaq, elektrotexnika.

Bundan roppa-rosa 102 yil muqaddam Turkistonning 70 ga yaqin iste'dodli talabalari Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga o'qishga yuborildi. Ushbu hodisa o'sha davrlardagi ijtimoiy madaniy hayotida ulkan unutilmas voqea bo'ldi. Fan va xo'jalikning turli sohalarida zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yoshlarning yuqori malakali kadrlar bo'lib qaytishi xalqimiz va mamlakatimizning keyingi taqdiriga katta ta'sir o'tkazishi mumkin edi. Afsuski, O'zbekistonning mustamlaka tarzida qolishidan manfaatdor bo'lgan sovet davlati dastlab bu talabalarning o'qishni tamomlamay turib qaytishlarini talab etdi, 1937 yilning qonli voqealari boshlanishi bilan ularni Germaniyaning josuslari va aksilinqilobchi-millatchi unsurlar sifatida mahv etib tashladi.

Millat taqdiri, Turkiston yoshlarining kelajagi, xalqning ma'naviyati uchun qurbon bo'lgan va hayoti daxshatli azob-uqubatlar bo'roniga to'lgan bu yetmish qahramonlarni men "Turkistonning yetmish oqqushi" deb atadim.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi raisi Fayzulla Xo'jayev talabalarni Germaniyaga olib borish va o'qishga joylashtirishni Buxorolik ziyolilardan Abduvohid Burhonov va Germaniyadan Buxoroga kelgan tatar ziyolilaridan Olimjon Idrisiy, A.F.Kemenitskiy o'rtoqlardan iborat maxsus komissiyaga topshiradi hamda ularning huquq va vazifalarini ko'rsatib beradi. Buxoro madrasalarini bitirgan, so'ng Germaniya va Turkiyada bo'lib qaytgan Olimjon Idrisiy Germaniyadagi Buxorolik va Turkistonlik talabalarning ma'rifiy va madaniy ishlar bo'yicha rahbari etib tayinlanadi. Fitrat talabalarimizni Germaniyada yaxshi o'qishga, kelgusida o'z yurtlariga yaxshi mutaxassis bo'lib qaytish va uning istiqboli uchun fidoyi vatanparvar sifatida xizmat qilishga da'vat qiladi. U hatto o'zining Toshkentdagi sobiq talabalaridan bo'lgan Vali Qayumxon va boshqalarni Samarqandga olib borib, ularga Temur sag'anasi oldida qasam ichtiradi. Bu voqeani keyinchalik Vali Qayumxon bunday xotirlaydi: «U meni Buxoroga olib bormoqchi bo'ldi. Ammo u yerga borishdan oldin Buyuk xoqon Amir Temurning Samarqanddagi sag'anasi oldida tiz cho'kib, millat taqdiri uchun kurashaman, deb va'da berdim. Ko'zimdanda yosh chiqib ketdi».

O'zbekiston Markaziy Davlat arxivi materiallari (R47- fond, 1-tavsif, 29-ish; 441-ish, 51-bet; 196-ish, 117-bet; 516- ish, 27-bet; 575-ish, 25-bet; 36-fond, 1-tavsif, 42-ish, 156- 156a-betlar va boshqalar) ga qaraganda, Buxoro va Turkistondan Germaniyaga o'qishga yuborilgan talabalarga RSFSR tashqi ishlar komissari o'rinbosari Chicherin va boshqalar orqali doimiy stipendiya, moddiy va ma'naviy yordam yuborib turilgan. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ehtiyoji, intilishlari, g'oyaviy-siyosiy kayfiyatlaridan xabardor bo'lgan. Xorijdagi Turkistonlik talabalarimizga davlat stipendiyalaridan tashqari, ularga yordam ko'rsatish uchun tuzilgan «Ko'mak» jamiyatidan ham xayriya mablag'lari yuborib turilgan. (Masalan, 1921 yili Toshkentda tashkil bo'lgan «Ko'mak» uyushmasi a'zolarining o'qigan ma'ruzalari, milliy san'at ustalari tomonidan ko'rsatilgan spektakllardan tushgan daromadning 80, uloq poygasidan tushgan daromadning esa 20 foizi yuborilgan.)

1921 yilda Germaniyaga o'qishga ketgan Toshkentlik Abduvaxob Murodiy «Berlindan xat» maqolasida 1921 yildan beri Germaniyada Turkistondan yolg'iz o'zi o'qib turganligi, agar «Ko'mak» jamiyati a'zolari Yevropaga talabalar jo'natadigan bo'lsalar, ularni Germaniyaga yuborish maqsadga muvofiq ekanligi, chunki, nemislarning bugungi kunda ilmda, maorifda butun Yevropaga ustoz ekanligi, bundan tashqari, Germaniya

bilan sovetlar Rossiyasi o'rtasida yaxshi qo'shnihilik munosabatlari o'rnatilganligini ta'kidlab, bunday yozgan edi:

«Bir yildirki, Ovrupoda yashamoqdaman. Ilm-maorifda Ovruponing birinchisi bo'lgan Germaniya dorilfununlarida butun dunyodan, hatto tatarlardan o'nlab, turklardan esa minglab talabalar bo'lgani holda bizning Turkistondan mendan boshqa talaba bo'lmasligi yuragimni parchalamoqda, boshqalarga hasad sezgisi uyg'otmoqda edi. Sizlarning bu xayrli muborak tashabbusingiz yillardan beri kulmagan ko'nglimni kuldirdi va ruhimga jon berdi. Germaniyaga kelganimdan so'ng ovrupoliklarni yaqindan tanimoqqa muvaffaq bo'ldim... Nemislar o'zlarining hisobsiz dushmanlarini yengmoq uchun Sharqning uyg'onmog'ini istaydilar. Bu kungacha Sharq to'g'risida yozgan kitoblari butun betaraflik bilan yozilmishdir. Faqat maorifda, ilmda bular butun Ovrupoda ustoz hisoblanadilar. Nemislarning oliy maktablarida yuzlab amerikalik, fransuz va inglizlarning bo'lishini va bu yerga muhandis to'plamoq uchun birmuncha hay'atlarning kelishi mening bu davoimni isbot etar. So'ngra boshqa Ovrupo davlatlariga eng yaqini ham shudir. Sho'rolar hukumatining Germaniya bilan yaxshi aloqada bo'lishi va Germaniya bilan sho'rolar Rossiyasi orasidagi ahdnomalar ham yana bizni Germaniyaga tortar, shul sabablarga ko'ra, Ovrupoga yuborilaturg'on talabalarni eng avval Germaniyaga yuborilmog'i har to'g'ridan aqlga muvofiqdir. Shunga muvaffaq bo'lmoq ham uncha qiyin emas. Bizning o'z tilagimiz va sho'rolar hukmatining bu kungi siyosati ham bu fikrga to'g'ri keladir».

Abduvahob Murodiyning bu maktubidan rag'batlangan Toshkentlik bir gurux maorif va madaniyat xodimlari uning moddiy ta'minoti uchun qog'oz va oltin pul, Mirzacho'l dehqonlari nomidan esa qo'y va meva-cheva yuboradilar. Jumladan, jadid ziyolilaridan Saidnosir Mirjalilov 20 000 so'm, Cho'lpon 7 500 so'm yuboradilar, Munavvar qori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiylar ham alohida himmat ko'rsatadilar. Bundan tashqari, Toshkent ma'rifatparvarlari 2-dekabrda adabiy kecha uyushtirib, undan tushgan 75 000 so'm sof foydani tegishli yo'llar bilan Abduvahob Murodiyga yetkazadilar.

Turkiston va Buxorodan 1922 yil oxirlarida 70 ga yaqin turli yoshdagi mahalliy yosh yigit va qizlar Germaniyaning turli shaxarlaridagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlariga qishloq xo'jaligi, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, pedagogika, tibbiyot va boshqa muhim sohalar bo'yicha o'qishga yuboriladi. Bular ichida shu davrda Saydali Xo'jayev, Sattor Jabbor, Axmad Shukriy, Axmadjon Ibrohimov, Xayrinisa Majidxonova, Maryam Sultonmurodova va boshqalar bor edilar.

Oradan ikki yil o'tgach, «Turkiston» gazetasida Germaniyada o'qigan Turkistonlik talabalardan Sattor Jabborning Ertoy taxallusi bilan yozgan maqolasi e'lon qilinadi. Sattor Jabbor o'z maqolasida Germaniyaning haqiqatan ham Yevropada ilm-fan taraqqiyotida oldinda ekanligi, buni u yerga borib o'qiyotgan Buxorolik va Turkistonlik talabalarinnng hammasi o'z ko'zlari bilan ko'rganliklari, ularning hammasi ham Germaniyada nemislar tomonidan nihoyatda yaxshi kutib olinganligi, nemislarning haqiqatan ham Turkistonning uyg'onib kelayotganligini olqish bilan qarshi olganligi va ularga samimiy yordam ko'rsatayotganliklarini faxr bilan tilga olib, bunday davom etadi:

«Biz 22-yilning so'nggi oylarida Germaniyaga kelgach, buyuk Turkistonni talab, yondirib, ezib kelgan rus monarxistlari Petrovskiy Ovrupoga yuborish uchun talaba topolmagan vaqtlarini eslariga olmasdan, sartlar Ovrupoda nima qiladir? - degan istexzolar bilan matbuotlarida qichqirishib o'tgan edilar. Rus millatchilarining bu sovuq va qo'pol qarashlariga qarshi germanlar tomonidan yaxshi kutib olindik. Matbuot: «Turkiston uyg'ondi, uyg'ondi!» kabi undovlar bilan qizg'in maqolalar yozib o'tdi. Har qanday nemis bizni oilasiga qo'shib olish uchun eshiklarini ochib qo'ydi. Oddiy muallimidan tortib, doktori, professori til o'rganishimiz uchun qo'lidan kelgan yordamini ayamadi. Ko'zimiz bilan ko'rganimiz uchun bu yerda ochiq aytishimiz kerakki, ular mamlakatimizni, tariximizni, istiqbolimizni bir Turkistonlikdan ortiq biladurlar, taniydurlar. Yurtimiz to'g'risida biz uchun eng muhim bo'lgan kitoblar yozib, boshqa tillardan ham tarjima qilg'onlar...», deb yozadi.

20-yillar oxiri - 30 - yillarning boshlarida Germaniyadan o'qishlarini bitirib, Turkistonga qaytgan Sattor Jabbor, To'lagan Mo'min, Muxammad Xo'jayev, Sulton Matqul, Azimbek Berimjon, Rauf Rasuliy, Xayrinisa Majidxonova, Maryam Sultonmurodova va boshqalar Germaniyada erishgan ilg'or bilim va tajribalarini bu yerda ishga solib, respublikamizning taraqqiyoti yo'lida fidokorona ishladilar. Lekin, afsuski hursandchilik va osuda hayot uzoqqa cho'zilmaydi, 1937 yilda sobiq SSSRda boshlangan «vatan xoinlari»ni fosh qilish vasvasasi ostida Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Fitrat, Cho'lpon singari davlat va madaniyat arboblari

kabi Germaniyada o'qib, vatanlariga qaytgan mazkur yigit va qizlarimiz ham sovetlarga qarshi allaqanday aksilinkilobchilik va millatchilik tashkilotining a'zolari sifatida ayblandilar. Ular o'zlariga qo'yilgan bunday asossiz ayb va tuhmatlarni qanday mantiqiy dalil va faktlar bilan rad etishga urinmasinlar, uzoq davom etgan ruhiy va jismoniy qiynoqlardan so'ng o'zlariga qo'yilgan ayblarni tan olishga majbur bo'ldilar. Ularning deyarlik hammasi 1938 yilning 4 - 9 oktabr kunlarida vahshiylarcha otib o'ldirildi.

Shunday qilib, 30-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekistonda boshlangan stalincha qonli terror oqibatida Germaniyadan o'qib qaytgan mazkur talabalar nemis-fashist josuslari, vatan xoinlari kabi soxta ayblar bilan begunoh qatl qilib yuborildi. Shu bilan ularning Respublikamiz iqtisodi, xo'jaligi, ilm-fani va madaniyatining taraqqiyoti yo'lida olib borayotgan fidokorona ishlari barbod etildi, ular nomini tilga olishga ham yo'l qo'yilmadi, hatto ularning avlod-ajdodlari ham uzoq ta'qib va tazyiqdan qutula olmadilar. Turkiya va Germaniyada qolib ketgan talabalarga ham vatan xoinlari sifatida munosabatda bo'lindi.

Xuddi shunday tuxmatga uchraganlar orasida Yevropaga borib o'qish u yoqda tursin, qatto O'zbekistonning o'zidagi yangi maktablarga qatnashining o'zi ham xavfli bo'lgan Xayrinisa Majidxonova singari o'zbek qizlari bo'lganki, ularning 1922 yilda Germaniyaga birinchilardan bo'lib o'qishga borishi chin ma'noda qahramonlik edi. Sovet davlati endigina «to'rt devor»ni hatlab o'tib, zamonaviy bilim olmoqchi bo'lgan shunday beozor va begunoh o'zbek qizlarini ham o'n gulidan bir guli ochilmagan vaqtida sharmandalarcha otib tashladi.

Faqat 1991 yil 1 sentabrda O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishganidan keyingina Germaniyada o'qib, u yerdan qaytmagan yoki qaytib 30-yillarda repressiyaga uchragan vatandoshlarimiz ham, ularning respublikamiz tashqarisidagi avlod-ajdodlari ham tamomila oqlanib, ro'shnolik ko'ra boshladilar. O'zbekiston mustaqillik yillarida faqat Germaniya bilangina emas, balki AQSh, Fransiya, Angliya, Rossiya, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan ham mustahkam va o'zaro manfaatli iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni o'rnatdi. 90-yillarda Respublika Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan «Umid» jamg'armasining faoliyati davomida yuzlab iste'dodli yoshlarimiz jahonning haryib barcha taraqqiy etgan mamlakatlariga o'qishga yuborildi. Xorijda o'qigan talabalarimizni avvalgi sovet totalitar tuzumi davridagi kabi shubqa va ta'qib emas, istiqbolli kelajak quchoq ochib kutib oldi. Yosh avlodning zamonaviy fan va texnikani egallashi masalasi hozir ham respublika rahbariyatining diqqat markazida turibdi va bu sohada mamlakatimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Shu narsa quvonarliki, mamlakatimizdagi iste'dodli yoshlarning barkamol insonlar bo'lib shakllanishiga xorijiy muassasalar ham o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Keyingi yillarda birgina Germaniyaning Konrad Adenauer fondi yordamida Haydelberg universitetida Ravshan Sulonov, Alisher Mirzaahmedov, Shtuggart shahridagi Xoyenxayn universitetida esa Umidjon Nazarqulov kabi talaba va doktorantlar mashxur nemis professorlari qo'lida muvaffaqiyat bilan o'qib qaytdilar. Ular mazkur o'quv muassasalari yordamida 20-30-yillarda Germaniyada o'qib, so'ng O'zbekistonga qaytgan va qaytmagan o'tmishdoshlari boshlagan ezgu ishlarni yangi tarixiy sharoitda davom ettirib, o'zbek fani va madaniyatini, umuman, O'zbekistonning har tomonlama taraqqiyoti yo'lida faoliyat olib bormoqdalar.

102 yil. Bu muddat umuman olganda ko'p emas ammo mana shu vaqt millat yoshlarining maqsadini yodidan chiqarib qo'yishga ulgurdi. Xo'sh bugun har qanday oliygohda ta'lim olayotgan har bitta talaba nima uchun o'qimoqda o'zi? Nima uchun aka-ukalarining rizqini qiyib, katta miqdorda o'qish to'lovini to'lamoqda? Nima uchun eng oliy va qaytarilmas ne'mat - vaqtni sarflamoqda? Nima uchun? Bir parcha gofra qog'ozdan tashkil topgan "Diplom" atalmish buyum uchunmi? Yoki el orasida "Oliy ma'lumotli" degan mansab-u maqom uchunmi? Ha afsuski bugungi talaba yoshlarning aksari ana shu maqsadda oliygoh ostonasini xatlamog'dalar. Achinarlisi shundaki ular orasida xatto maqsadsiz yigit-qizlar ham topiladi. Turkistonning yetmish oqqushlarining ruhi quloqlarimizga shivirlab ta'lim olmoqning asl maqsadini aytayotgan ekan, ularning pok ruhlarini hurram qilmoqlik uchun ham, yangi O'zbekistonda uchinchi renesansni barpo qilmoqlik uchun ham, har doim o'qimog'imiz, o'qimog'imiz va uqmog'imiz darkor !

O'ttiz yettinchi yil yaprog'i

Yigirmanchi yillar... Olmon tuprog'i

Uzra qadam qo'ydi, Uzra qadam qo'ydi

Yetmish to'rt ilimga tashna talaba...

Berlin osmonidan oyning o'rog'i

Ular chakkasiga gul bo‘lib qo‘ndi...
Ularni kutardi kurash, g‘alaba...
- Vatanim, kut meni! - Meni kut, Vatan!
Biz senga qaytamiz bir bo‘ston bo‘lib.
Bizlar nihol edik sen o‘zing ekkan,
Bizni kut musaffo osmon bo‘lib!
Biz sening ertangmiz, porloq bir erta,
Avlodlar to‘qishar biz haqtsa ertak...
O‘ttiz yettinchi yil... momaguldirak...
Yomg‘irni yog‘di yo yog‘ib o‘tdi o‘q...
Keksa tarix bergil ulardan darak,
Nega Sattoring yo‘q, nega Maryam yo‘q?
Tarix der: - Shahidlar ketmagay izsiz,
Maryam ham, Xayri ham, Sattor ham sizsiz!...
N.K.
Berlin, 2000 yil 22 dekabr.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivi, 34-fond, 1-tavsif, 733-ish, 329-bet. 75-fond, 1-tavsif, 673-ish, 88-88 a-betlar.
2. Sherali Turdiyev: “Ular Germaniyada o‘qigan edilar”
3. Javlon Jovliyev: “Qo‘qma”
4. “Saodat” jurnali 2003 yil 2 - son.
5. BBC Uzbek sayti.
6. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.
7. Yunusov, G., Juraev, I., & Ahmedov, R. (2020). A LOOK AT THE REGIONAL SEASONAL FOLKLORE AND THEIR ORIGIN. THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE IN THE DEVELOPMENT OF DANCE ART. European Journal of Arts, (1), 121-124.
8. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 9-14.
9. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
10. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
11. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(6), 2225-2232.
12. Talaboyev, A. (2021). Skill Improving Ways in Traditional Song Performing. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 12-17.
13. Талабоев, А. Н. (2019). Ўзбек миллий анъанавий ижрочилик санъатида маҳаллий услублар. Перекрёсток культуры, 1(4).
14. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.
15. Талабоев, А. (2019). Мақом санъатида сўзинг ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 25-28.
16. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. (2020). SONG PERFORMING IN TRADITIONAL PERFORMING ARTS: PAST AND PRESENT TIM. European Journal of Arts, (1), 85-88.
17. Talaboyev, A., Yunusov, G., & Ahmedov, R. (2020). Local methods of traditional singing. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2916-2920.

18. Аҳмедов, Р. (2020). Миллий мусикий ижрочилик санъатига бир назар. *Oriental Art and Culture*, (1 (2)), 5-9.
19. Shermatova, X. (2021). A LOOK AT THE MUSIC EDUCATION IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 253-258.
20. Shermatova, X. (2020). MUSIQA NAZARIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental Art and Culture*, (V).
21. Шерматова, Х. К. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЁЖИ. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 117-119.
22. ШЕРМАТОВА, Х. К. (2015). Народная музыка как средство музыкально-эстетического воспитания школьников. In *Юность и Знания-Гарантия Успеха-2015* (pp. 318-316).
23. Мад, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ ТАМАРА ХОНИМНИНГ СОБИҚ ИТТИФОҚ ДАВРИДА САНЪАТДАГИ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. *Oriental Art and Culture*, (7), 160-170.
24. Мадолимов, Д. (2021). ЎЗБЕКИСТОН САНЪАТКОРЛАРИНИНГ УЛУҒ ВАТАН УРУШИДА ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДА ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ (1941-1945 ЙИЛЛАР). *Oriental Art and Culture*, (7), 144-151.
25. Kurbonova, M. (2021). The importance of folklore in the upbringing of a harmoniously developed generation. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1750-1758.
26. Курбонова, М. (2021). Аёллар санъати: кеча ва бугун. *Oriental art and culture*, 2(3), 62-75.
27. Qurbonova, M. (2020). СНЕТ ЕЛ МУСИҚАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).
28. Tursunov, B. (2021). Doira as a National Musical Instrument. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 50-54.
29. Турсунов, Б. (2020). ЧОЛҒУ ИЖРОЧИЛИГИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Oriental Art and Culture*, (V).
30. Исмаилова, М. М. (2020). ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКЕ: ДУТОР. Проблемы современной науки и образования, (12-1 (157)), 113-115.
31. Ismoilova, M. (2020). CHOLG'U IJROCHILIGIDA NOTAGA QARAB IJRO QILISH. *Oriental Art and Culture*, (V).
32. Mamatov, J. (2020). BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA ERTAKLARNING AHAMIVATI. *Oriental Art and Culture*, (V).
33. Mamatov, J. (2021). Directing in the Training of Art Professionals. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 90-96.
34. Madaminov, S., Mamatov, J., & Siddikov, S. (2020). A look at the history of uzbek maqom art. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1144-1151.
35. Jurayev, I. (2021). A LOOK AT THE LIFE PATH OF FATTOKHON MAMADALIEV. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 54-59.
36. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. *An International Multidisciplinary Research Journal*. An International Multidisciplinary Research Journal.
37. Yunusov, G. X., Juraev, I., & Ahmedov, R. *The European Journal of Arts*, Issue 1/2020.
38. Ahmedov, R. (2021). SAN'ATGA BAXSHIDA UMR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 50-56.
39. Ahmedov, R. (2021). Murodjon Ahmedov-Fergana Valleys Singer. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 412-418.
40. Talaboyev, A. N. (2021). MAQOM SAN'ATI. MAQOM SAN'ATINI O'RGANISHDA VA UNI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 149-155.
41. Talaboyev, A. N. (2021). Methods of Effective use of Teacher-Discipleship Traditions in Learning the Art of Makom. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 389-393.

42. Ismailova, M. (2021). SHOGIRDLARI QALBIDAN CHUQUR JOY OLGAN USTOZ YULDASHEV AHMADJON MIRZAEVICH. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 27-33.

